O‘zDSMI Ilmiy Kengashining 7-sonli yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi

Bugun O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Ilmiy Kengashining 7-sonli yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda oliygoh rahbariyati, kengash a’zolari, dekan va uning o‘rinbosarlari, kafedra mudirlari, bo‘lim boshliqlari va boshqalar ishtirok etdi.

Dastlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Farmoyishlari va topshiriqlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va bayoni, Vazirliklarning buyruqlari va topshiriqlarining bajarilishi to‘g‘risida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, ichki nazorat va monitoring bo‘limi boshlig‘i axboroti eshitildi.

Shuningdek, Kengashda quyidagi masalalar to‘g‘risidagi hisobotlar tinglandi:

– 2023/2024-o‘quv yili birinchi yarim yillik yakunlari bo‘yicha o‘quv faoliyat natijalari to‘g‘risida;
– axborot-resurs markazida professor-o‘qituvchilarning maqolalari bazasini tashkil etish holati;
– institutda ma’naviy-axloqiy tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishga doir tashkiliy ishlar;
– talabalarning malakaviy amaliyotini samarali tashkil etish va boshqa masalalar.

Kengash yakunida belgilangan vazifalar bo‘yicha mas’ullarga topshiriqlar berildi.
























2022
2023
11
16









Adiblar Zulfiyaxonim bag‘ishlangan xiyobonida tavalludiga ma’naviy-

ma’rifiy tadbirda O‘zDSMI talabalari ishtirok etdi

O‘zbek xalqining sevimli shoirasi, O‘zbekiston xalq shoiri Zulfiya Isroilova mustaqillik yillarida ibratli hayot kechirgan, keng ijtimoiy faoliyat olib borgan shoira betakror iste’dodi, Vatanga muhabbati, oliyjanob insoniy fazilatlari, xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishdagi xizmatlari uchun yuksak hurmat va e’zozga sazovor bo‘lgan.

Bahorning ilk kuni mamlakatimizda adabiyot, she’riyat, nazm va navo bayrami, sadoqat, do‘stlik, mehnatsevarlik singari insoniy tuyug‘ularning tantanasiga hamohang tarzda nishonlanishi bejiz emas.

Shu munosabat bilan Kino, televideniye va radio san’ati fakultetining professor-o‘qituvchilar va talabalarining ishtirokida Adiblar xiyobonida ma’naviy-ma’rifiy tadbir o‘tkazildi.















O‘zDSMI rektori v.b. Eldor Shermanov talabalar turar joyida qolib, yoshlar bilan ma’daniy-ma’rifiy va sport tadbirlarida ishtirok etdi

28-fevral kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori v.b. Eldor Shermanov davlatimiz rahbarining ijtimoiy sohaga oid videoselektorda bergan topshiriqlari ijrosini ta’minlash maqsadida talabalar turar joyiga tashrif buyurib, talabalar holidan xabar oldi.

Suhbat davomida moddiy ko‘makka muhtoj talabalarga yordam ko’rsatish, ularni kasbga o‘rgatish, talabalarni qiynayotgan boshqa masala va muammolar tinglanib, ularga yechimlar topildi.

Jumladan, 2-talabalar turar joyida istiqomat qiluvchi talaba-qizlar bilan muloqot chog‘ida ishga kirib ishlashni va o‘z sohasida amaliy tajribaga ega bo‘lishni xohlagan 3-bosqich talabasi Anorboyeva Nilufarni talabalar turar joyida faoliyati yo’lga qo’yilgan kutubxonaga ishga joylashtirish bo‘yicha mas’ullarga ko‘rsatma berildi.

1-talabalar turar joyidagi talaba qizlar bilan bo‘lib o‘tgan suhbat davomida zamonaviy kompyuter bilimlarini egallashni maqsad qilgan talaba Rahmonova Dinoraga zamonaviy kompyuter olib berilishi qayd etildi.

Yoshlar tomonidan berilgan yana bir qator samarali takliflar ijrosini ta’minlash borasida vazifalar belgilandi.

Rektor yotoqxonada talabalar uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishib, TTJdagi yashash xonalari, dars xonalari, kutubxona,

kompyuter zali, ma’naviyat xonasi, tikuv sexi ko‘zdan kechirdi.

Shuningdek, rektor yoshlarning bo‘sh vaqtlarini unumli o‘tkazish maqsadida tashkil etilgan ma’daniy-ma’rifiy va sport to‘garaklari faoliyati bilan tanishdi.

Qolaversa, rektor talaba-yoshlar tomonidan tashkil etilgan «Gulxan kechasi»da qatnashib, ularning quvonchiga sherik bo‘ldi hamda talaba-qizlar bilan sport zalida voleybol o‘yinida ishtirok etdi.








































«Zamonaviy drama va kino san’ati: muammo va yechimlari» mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi bo‘lib o‘tdi

Joriy yilning 29-fevral kuni dramatik teatr va kino san’ati kaferdasi tashabbusi bilan «Zamonaviy drama va kino san’ati: muammo va yechimlari» mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi bo‘lib o‘tdi.

Unda soha vakillari, taniqli professor-o‘qituvchilar va olimlar, kafedra o‘qituvchilari, tayanch doktorantlar o‘z ma’ruzalari bilan ishtirok etdi.

Konferensiyani institut rektori v.b. Eldor Shermanov ochib berib, sohadagi muammolar va ularni bartaraf etishda institut zimmasida katta mas’uliyat borligi to‘g‘risida to‘xtalib o‘tdi.

Bundan tashqari, konferensiyada O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, professor Munavvara Abdullayeva, professor Hamida Mahmudova, dotsent Shoira Hamidova, san’atshunoslik fanlari nomzodi Oybek Kapadze kabi bir qancha soha mutaxassislarining ma’ruzalari tinglandi.






















Madaniyat nazariyasi va tarixi. Madaniyatshunoslik ixtisosligi bo‘yicha mutaxassislik fanidan kirish imtihonlari bo‘lib o‘tdi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi «Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi 304-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida 2024-yil 2-chorak uchun mustaqil izlanuvchi (DSc/PhD)ga hujjatlari qabul qilingan talabgorlar uchun suhbat jarayoni tashkil etildi.

O‘zDSMI rektorining tegishli buyrug‘iga muvofiq, joriy yilning 29-fevral sanasida mustaqil izlanuvchilik (PhD)ga kiruvchilar uchun 17.00.07 – Madaniyat nazariyasi va tarixi. Madaniyatshunoslik ixtisosligi bo‘yicha mutaxassislik fanidan kirish imtihonlari bo‘lib o‘tdi.

Qabul komissiyasi a’zolari doktorantura bosqichida mustaqil izlanuvchi (PhD) sifatida ilmiy tadqiqot olib borish istagini bildirgan talabgorlar bilan suhbat o‘tkazdi.











Samarali xalqaro hamkorliklar – taraqqiyot omili

Bugun O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida xalqaro aloqalar samaradorligi va rektor huzuridagi o’tkazilgan yig’ilishda belgilab berilgan vazifalar ijrosi muhokama qilindi.

Yig’ilish avvalida cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi kafedrasi dotsenti Sedix Tatyana Tomovnaga san’atshunoslik fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi diplom tantanali ravishda topshirilib, uning keyingi faoliyatiga ham omad tilandi.

Yig‘ilishda institutning xalqaro oliy ta’lim muassasalari bilan imzolangan memorandumlar ijrosini ta’minlash hamda hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish masalalari muhokama qilindi. Bu borada yanvar oyida Xitoy xalq Respublikasining 5 ta oliy ta’lim muassasasi bilan erishilgan kelishuvlarni amaliy jihatan hayotga tadbiq etish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Shuningdek, yig’ilishda kontrakt va talabalar turar joyi to’lovlarining holati monitoring qilinib, zaruriy ko’rsatmalar berildi.






















O‘zDSMIda kino san’ati bo‘yicha mustaqil izlanuvchi bo‘lishga talabgorlar uchun suhbat tashkil etildi


O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi «Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi 304-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida 2024-yil 2-chorak uchun mustaqil izlanuvchi (DSc/PhD)ga hujjatlari qabul qilingan talabgorlar uchun suhbat jarayoni tashkil etildi.

O‘zDSMI rektorining tegishli buyrug‘iga muvofiq, joriy yilning 28-fevral kuni mustaqil izlanuvchilik (PhD)ga kiruvchilar uchun 17.00.03 – Kino san’ati. Televideniye ixtisosligi bo‘yicha mutaxassislik fanidan kirish imtihoni bo‘lib o‘tdi.

Qabul komissiyasi a’zolari doktorantura bosqichida mustaqil izlanuvchi (PhD) sifatida ilmiy tadqiqot olib borish istagini bildirgan talabgorlar bilan suhbat o‘tkazdi.

















O‘zDSMI «Talabalar teatr studiyalari» Respublika-ko‘rik tanlovining hududiy bosqichiga mezbonlik qilmoqda

O’zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti «Talabalar teatr studiyalari» Respublika ko’rik-tanlovining 2-hududiy bosqichiga mezbonlik qilmoqda.

Bugun institut o’quv teatri binosida O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,

Alfraganus universiteti, Perfect universiteti oliygohlarining talabalari o’z spektakllarini namoyish etishadi.

















